
TOSHLOQDA YOSHLARGA YeR AJRATISH ORQALI ULARNING BANDLIGI TA'MINLANMOQDA

Joriy yilning 12 fevral kuni yoshlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda Davlatimiz rahbari tomonidan qishloq xo'jaligidan yer ajratish orqali yoshlarni ish bilan ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berilgan edi.

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 5 apreldagi PQ-153-son qaroriga asosan Toshloq tumanida ham dehqonchilik qilish istagini bildirgan yoshlarga 30 yil muddatga ijara asosida yer maydonlari ajratilmoqda.

Bugun 2-sektor hududidagi "Davlatjon" fermer xo'jaligiga qarashli 1,8 gektar yer maydoni ishsiz va otaliqqa olingan yoshlarga 30 yillik ijara asosida topshirildi.

2024-04-23 16:55:02